O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Andijon shaxar, Abdurauf Fitrat ko’chasi 239-uy

2024 - yil 9 - aprel 126-1-0-Q/24 Andijon viloyati hokimligi

Andijon viloyatining Shahrixon, Ulug‘nor va Oltinko‘l tumanlaridan o‘tuvchi ayrim avtomobil yo‘llarida harakatlanish tezligini kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qaroriga muvofiq, shuningdek, avtomobil yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarining oldini olish, ularning og‘ir oqibatlarini kamaytirish maqsadida viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 22-fevraldagi 7/6-307-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 22-fevraldagi 7/6-307-sonli xati inobatga olinsin.

2. Quyidagi avtomobil yo‘llarida barcha avtomototransport vositalari harakatlanishining yuqori tezligi soatiga 70 kilometr etib belgilansin:

Shahrixon tumani hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatdagi A-373 “M39 avtoyo‘li – Guliston – Bo‘ka – Angren – Qo‘qon va Andijon orqali – O‘sh avtomobil yo‘lining 409 – 412 km lari;

Ulug‘nor tumani hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatidagi 4R-126 “Baliqchi qishlog‘i – Mingbuloq qishlog‘i – Nayman qishlog‘i – Pungon qishlog‘i” avtomobil yo‘lining 6 – 15 km lari;

Ulug‘nor tumani hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatidagi 4R-127 “Marg‘ilon shahar – Soybo‘yi qishlog‘i” avtomobil yo‘lining 29-46 km lari;

Oltinko‘l tumani hududidan o‘tuvchi 4R-112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 139 – 141 km lari.

3. Viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Nosirov)

Andijon avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (M.Nurmatov) yuqori tezlik soatiga 70 kilometr etib belgilangan avtomobil yo‘llariga 7.2.1. “Ta’sir oralig‘i”, 3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” va 3.25. “Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri” yo‘l belgilarini o‘rnatsin.

4. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Ibrohimov IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Nosirov) bilan birgalikda yuqori tezlik soatiga 70 kilometr etib belgilangan avtomobil yo‘llari haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov va viloyat hokimligi guruh rahbari B.Nazirov zimmalariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**